

Sirojiddin ESHKURBONOV,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

E-mail: sirojiddin_eshkurbonov@tues.uz

Tel: +998997481589

TISU dotsenti, t.f.d.N.Tursunov taqrizi asosida

ETHNO-TERRITORIAL LOCATION OF THE POPULATION OF SURKHAN OASIS BY ECONOMIC ACTIVITY

Annotation

In this article, the economic characteristics of the population engaged in farming in the Surkhan oasis, which is considered the southern region of Uzbekistan, according to the ethno-territorial location, were studied. The natural and geographical conditions of the Surkhan oasis for farming, its inhabitants are Uzbek and Tajik-speaking Chigatoys, Karluq, Barlos, Turks, Kaltatoys, Kungirats, Mountain Qatags, who are mainly engaged in agriculture. The location of ethnic and ethnographic groups such as "on" and "yuz" was analyzed based on scientific literature and sources. It was also considered that they specialize in farming types suitable for the natural conditions of the place where they live.

Key words: Farming, ethno-territorial, ethnographic unit, Tokharistan, lalmi, obi, deymi, qaryaki, tramoi, reservoir, canal, chigatoy, horticulture, Karabakh, Zarabog, Novbog.

ЭТНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНОЕ РАСПОЛОЖЕНИЕ НАСЕЛЕНИЯ СУРХАНСКОГО ОАЗИСА ПО ХОЗЯЙСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В данной статье изучены экономические характеристики населения, занимающегося земледелием в Сурханском оазисе, который по этнотерриториальному расположению считается южным регионом Узбекистана. Природно-географические условия Сурханского оазиса для земледелия, его жители – узбекские и таджикоязычные чигатойцы, карлуки, барлосы, турки, калтатои, кунгиратцы, горные катаги, которые занимаются в основном земледелием. Как «он» и «юз» анализировалось на основе научной литературы и источников. Считалось также, что они специализируются на видах земледелия, подходящих к природным условиям того места, где они живут.

Ключевые слова: Земледелие, этнотерриториальная, этнографическая единица, Тохаристан, лалми, оби, дейми, каряки, трамои, водохранилище, канал, чигатой, садоводство, Карабах, Зарабог, Новбог.

SURXON VOHASI AHOLISINING XO'JALIK FAOLIYATI BO'YICHA ETNOHUDUDIY JOYLASHUVI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonning janubiy hududi hisoblanmish Surxon vohasidagi dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholining etnohududiy joylashuv bo'yicha xo'jalik xususiyatlari o'rganildi. Surxon vohasining dehqonchilik qilish uchun tabiiy-geografik sharoiti, unda istiqomat qiluvchi asosan dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan o'zbek va tojik tilli chig'atoylar, qorluq, barlos, turk, kaltatoylar, qo'ng'irotlar, tog'chi qatag'onlar, yuzlar kabi etnik va etnografik guruhlarining joylashuvi ilmiy adabiyot va manbalarga asoslanib tahlil etildi. Shuningdek, ular yashaydigan joyning tabiiy sharoitlariga mos dehqonchilik turlari bilan shug'ullanishga ixtisoslashganliklari ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: Dehqonchilik, etnohududiy, etnografik birlik, Tohariston, lalmi, obi, deymi, qayroqi, tramoi, suvombor, kanal, chig'atoylar, bog'dorchilik, Qorabog', Zarabog', Novbog'.

Kirish. Surxon vohasi turli elat va millatlar bilan yonma-yon bo'lgan chegara hududlarida joylashganligi sababli aholisi etnik jihatdan murakkabdir. Vohada turli millat vakillari, o'zbek, tojik, turkman, arab, afg'on va boshqa etnoslar bevosita qo'shni yoki aralash holda yashab kelmoqda. Bundan tashqari, voha o'troq aholisi va turli davrlarda ko'chib kelgan etnik komponentlar bir-biriga yaqin etnik birliklarni tashkil etsa ham, o'zining kelib chiqanligi, yuz tuzulishi, shevalari, xo'jaligi madaniyati, turmushi, udumlari va urug'larga bo'linishi saqlanib qolganligi bilan bir-biridan farqlanib turadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. L.P.Potapov, M.V.Sazonova, G.P.Snesarev, N.G.Borozna, B.X.Karmisheva, K.Sh.Shoniyozov, I.Hidoyatov hamda X.Toshev singari etnograf olimlarning asarlarida o'zbek xalqining ananaviy xo'jaligi to'g'risidagi tadqiqotlar mavjud. O'zbek xalqining xo'jalik madaniy an'analari, uning rivojlanishi, mintaqaviy xususiyatlariga bag'ishlangan bir qancha yozilgan. Xususan, S.N.Tursunov, E.O.Qobilov, U.S.Abdullaev, A.A.Ashirov, O.Bo'riev, F.Sh.Raxmonov, N.N.Tursunov, A.R.Qayumov, A.E.Qurbonov, Z.S.Isoqov, M.Sh.Usmonov, I.Umarov va Ya.A.Turdimuradovlarning tadqiqot ishlari shular jumlasidandir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda tarixiy-tahlil, qiyosiy-tahlil, dala ma'lumotlarini to'plash, intervyu va anketa so'rovnomalari kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Surxon vohasi aholisi mamlakatimizdagi boshqa tarixiy-madaniy hududlardan farqlanadi. Aholi istiqomat qiluvchi ma'lum bir kichik va yirik hududlar o'rtasida ham ayrim farqlar mavjud. Har bir etnik va etnografik guruhlar joylashgan hududning iqlim-tabiiy sharoitlarini inobatga olsa, ularning yashashi, xo'jalik hamda moddiy madaniyatlarida o'ziga xos mahalliy xususiyatlari shakllangan [1].

Vohaning tog'li hamda tog'oldi hududlarida, daryoga yaqin joylarda dehqonchilik, bog'dorchilik xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi turg'un aholi va chorvachilik xo'jaligi yetakchi hisoblangan yarim o'troq aholi istiqomat qilgan. Asosan tog'li hududlarda tojiklar, past tog'li yarim dasht hududlarda hamda past-baland dashtlarda yarim o'troq o'zbeklar, tog' oldi va tog' yonbag'irlaridagi hududlarda esa aholi aralash tarzda yashaganlar [2].

Surxon vohasida dehqonchilik tabiiy-geografik sharoitga qarab uchta qismga bo'linadi: 1) sug'orma dehqonchilik; 2) lalmi dehqonchilik, bog'dorchilik hamda uzumchilikka ixtisoslashgan tog' va tog' oldi hududlar; 3) dasht donchiligi va cho'l dehqonchiligi.

Dehqonchilik xo'jaligi turlarining vohadagi ko'plab etnik guruhlar o'rtasida o'ziga xos taqsimoti mavjudligini ularning etnohududiy joylashuvi haqidagi ma'lumotlarda ham aks etgan. Vohaning asosan dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholisi xo'jalik sharoitlariga ko'ra joylarda turlicha taqsimlangan bo'lib, ma'lum hududlarda o'zlari yashaydigan joyning tabiiy sharoitlariga mos dehqonchilik turlari bilan shug'ullanishgan. To'plangan materiallar asosida quyida bularga batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

Chig'atoylar asosan dehqonchilik uchun qulay bo'lgan daryoga yaqin joylarda, tekisliklarda va tog' etaklarida yashaydilar. Chig'atoylarning asosiy mashg'uloti bog'dorchilik uzumchilik, sug'orma va lalmikor dehqonchilikdir. I.Hidoyatov Sariosiyo va Denov tumanlaridagi Dashnobod (oldingi Dashtinovad), Shohqishloq, Gazarak, Dehqalandar va Irman kabi katta-katta qishloqlarda yashagan chig'atoylarning dehqonchilik ilmi bo'yicha tajribasi yuqori bo'lganligini ta'kidlagan [5].

S.Tursunov va E.Qobilovlar vohaning janubiy qismida yashovchi dehqonchilik bilan shug'ullanadigan chig'atoy qishloqlarini shartli ravishda uch guruhga bo'ladi [7].

Birinchi guruhga Sherjon, Vandob, Zarabog', Qorabog', Poshxo'rd, Chakob, Xatak, Qizilolma, Laylagon va Korizot kabi Ko'hitang tog'larining sharqiy yonbag'irlarida joylashgan qishloqlar kiradi. Bu qishloqlar aholisi buloq hamda koriz suvlaridan foydalanib, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik, polizchilik bilan shug'ullanganlar va lalmi yerlarda esa donli ekinlar ekishgan[8].

Chig'atoylar o'zbek va tojik tilida gaplashadigan guruhlarga bo'linishadi. XIX asr oxirlarida topograf Petrov Shohqishloq va Dashtinovad qishloqlari aholisi tojiklar hamda o'zbeklardan iborat deb yozadi [9]. 1924 yilda tuzilgan ro'yxatda Shohqishloq va Dashtinovad qishloqlarining aholisi tojiklar ekanligi qayd etilgan [10].

Samarqandda yashagan chig'atoylar sug'orma va lalmikor dehqonchilik, bog'dorchilik, pillachilik, hamda chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Ular Samarqandda anor yetishtirishni yaxshi o'zlashtirgan bo'lib, yangi ko'chirilgan joylariga anor qalamchalarini olib kelganlar va bu yerda ham anor ekishni yo'lga qo'yanlar. Dashnobod o'zining anorlari bilan mashhur edi. N.A.Maevning yozishicha "nisbatan katta va boy qishloq bo'lgan Dashnobod o'zining ajoyib ta'mga ega anorlari bilan mashhurdir" [11]. Ushbu qishloq aholisi nafaqat anorlar yetishtirishadi, balki anorlarni chuqurlarga (choh) ko'mib, may oygacha toza holda saqlashganlar.

Chig'atoylarning dehqonchilik xo'jaligi mahsulotlari qishloq bozorida sotilgan. Dashnoboddagi bozor kunlari viloyatning boshqa savdo markazlari bilan bir vaqtga to'g'ri kelgan [2].

Yuzlar yoki juzlar Surxon vohasining o'rta va yuqori qismlarida qo'ng'irotlar bilan yonma-yon yashashgan. B.Karmisheva ularning yashash joyi hududi Hisor vodiysining sharqiy chekkasigacha cho'zilganligini qayd etadi [11]. 1924 yilda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalariga ko'ra Surxondaryoning yuqori oqimida juzlarning 2715 nafari ro'yxatga olinadi. Bundan tashqari Mirshodi qishlog'ida I.P.Magidovich 23580 kishining aksariyati turkman juz guruhidan bo'lganligini aytib o'tgan [5].

Yuzlar dehqonchilik uchun qulay bo'lgan suv manbalariga yaqin sug'oriladigan joylarda o'troq hayot kechirishib, xo'jaligining asosini dehqonchilik tashkil etgan. Ular asosan sholi yetishtirishda katta tajribaga ega bo'lishgan. Voha tojiklari sholi yetishtirishni yuzlardan o'zlashtirganligi qayd etiladi. Yuzlar yerga 8-10 kilogramm og'irlikdagi ulkan ketmonlari bilan ishlov berishgan. Bu kabi yirik mehnat qurolidan jismonan baquvvat kishilar foydalana olishlari mumkin bo'lgan. Bu ketmonlar Samarqanddan keltirilib, Sariosiyo va Uzun tumanlarida ularni "chimbur" (o't, ya'ni olov kesuvchi) deb atashgan. Keyinchalik bunday ketmonlardan foydalanilmay qo'yilgan [2].

Barloslar asosan Uzun tumani Jonchekka, Namuna qishloqlari, Sariosiyo tumanidagi Dashnobod, Quduqli, Shohqishloq va Qarabandi kabi qishloqlarda, Qoratog'daryo havzasida, shuningdek Hazorbog' kanali bo'yidagi Shonsoy, Sangardak, sharqda Chimtepa kabi qishloqlarda o'zbek-chig'atoylari va tojiklar bilan aralash tarzda yashaganlar. Ushbu hududda yashaydigan barloslar o'zlarini turk-barlos deb ham atashadi. Barloslar Denov, Uzun hamda Sariosiyo tumanlariga 350-400 yil avval ko'chib kelishgan [5]. Barloslar dehqonchilik, bog'dorchilik va uzumchilik bilan shug'ullanishganlar. Yonma-yon yashagan chig'atoylar ularga bog'dorchilikni o'rgatishgan.

Surxon vohasida do'rmonlar Sherobod tumanidagi Hojaki qishlog'ida (Sherobodaryoning o'ng irmog'ida joylashgan) boshqa urug'lar bilan birgalikda yashashgan. Shuningdek, Ular Xolchayon, Fayzobod, Serharakat, Jiydabuloq, Anorbuloq va Pistamozor kabi qishloqlarda ham istiqomat qilganligi aniqlangan. Ularning asli hududi Qabodiyon (Tojikiston) bo'lib, bir qismi bundan 255-300 yillar ilgari Sariosiyo va Denov tumanlariga ko'chib kelishgan [12]. Ba'zilar vohaga kelib joylashganliklarini Shayboniyxon bilan bog'lashgan[13, 12]. Ular sug'orma va lalmi yerlarda dehqonchilik bilan shug'ullanishgan. Sovet davrida do'rmonlar boshqa xo'jalik turlari, xususan, polizchilik va bog'dorchilik bilan ham shug'ullana boshlashgan [14, 16]. Dastlab Uzun tumanidagi bir qancha qishloqlarda do'rmonlar yashaganligi kuzatilgan bo'lsa, XX asrning 60-yillarida ular soni 15 dan ortiqni tashkil etgan.

Qo'ng'irotlar butun voha bo'ylab keng tarqalgan bo'lib, bir qancha mayda urug'larga bo'lingan. Qo'ng'irotlar urug'lari haqida bir qancha tadqiqot ishlari qilingan bo'lib, ularning shajarasi ham tuzilgan. Boysundaryo, Sherobodaryo, Amudaryo hamda Surxondaryo bo'ylarida qo'ng'irotlarning aholi manzilgohlari joylashgan. Surxon vohasining shimoliy va janubi-g'arb qismlarida zich joylashgan[15]. 1926 yilgi aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, qo'ng'irotlarning Qoratog'daryo havzasida, vohaning yuqori va Bobotog' qismida ham yashaganligi aniqlangan [16]. Ular vohaning yuqori qismida, tog'li hududlardagi Sangardak, Changloq, Bog'cha va boshqa qishloqlarda tojiklar bilan aralash yashaganlar. Sariosiyo, Denov, Dashnobod, Sarijo'y va Yurchida esa ular alohida qishloqlarda istiqomat qilishgan. Shuningdek, Boysun tumanidagi Munchoq, Chilonzor, To'da va Gumatak qishloqlari aholisi asosan qo'ng'irotlardan tashkil topgan. Sariosiyo va Denov tumanlarida yashovchi qo'ng'irotlar 280-290 yil oldin Dehqonoboddan (Qashqadaryo) ko'chib kelishgan bo'lib, bunga Dehqonobodda yaylovlar va yaroqli yerlarning yetishmasligi, ocharchilikning boshlanishi sabab bo'lgan [5].

Qo'ng'irotlarning an'anaviy xo'jalik mashg'ulotlari tarixini o'rganishda xalk dostonlari ham muhim ma'lumotlar beradi. Chunonchi, bu borada "Alpomish" dostonida dehqonchilik bilan shug'ullangan o'trok holda yashaydigan qo'ng'irotlar va chorvachilik bilan shug'ullanadigan ko'chmanchi qo'ng'irotlar qayd etilgan [17].

XX asr boshlarigacha dehqonchilik, xususan, sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanmagan, asosan, chorvachilikga e'tibor qaratishgan. Sherobod cho'llarining o'zlashtirilishi natijasida qo'ng'irotlar azaliy joylarini tashlab, yangi tashkil qilingan jamoa va davlat xo'jaliklariga ko'chirilganidan so'ng ular dehqonchilik bilan shug'ullana boshlagan [18].

Qarluqlarning katta guruhi asosan Hisor tog' tizmasining janubiy yonbag'rlarida joylashgan bo'lib, o'zlarini turkiy qarluqlar deb ham atashadi. Sariosiyo tumanida qarluqlar Tog'chiyon, Bayqishloq, Zag'nivot, Pozilko'chdi, Ko'Imozor, Cholmiyon, Sarimozor, Buyropush hamda Neloba kabi qishloqlarda yashaganlar va "besh yuz uyli qarluq" nomi bilan atalgan [19].

Sovetlar davrida qarluqlar kolxozlarda paxtachilik, bog'dorchilik, pillachilik bilan shug'ullanadi, shuningdek Sharg'un ko'mir konida ham ishlaganlar [5].

Ular yerga mohirona ishlov berib bahorgi, kuzgi bug'doy, arpa, shuningdek polizchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlarni ekib o'ziga xos xo'jalik madaniyatini o'zlashtirganlar [19].

Xalqayor daryosi bo'yida esa ularning yirik Qarluq qishlog'i joylashgan. Bunda XX asr boshlarida 120 xo'jalik (636 kishi) ro'yxatga olingan. Uning aholisi etnik jihatdan aralashgan, ammo ko'p qismini qarluqlar tashkil etadi. Oltinsoy tumanidagi Ipoq daryosi sohilida Ipoq qarluqlari (Qarluq qishlog'i) XX asr boshlarida o'troq xayot kechirib, asosan dehqonchilik hamda bog'dorchilik

bilan shug'ullanganlar. Ipoq qarluqlari antropologik, lingvistik belgilari hamda urf-odatleri jihatidan Qashqadaryo vohasining Muborak tumanida yashovchi qarluqlarga o'xshaydilar [20]. Sariosiyo va Uzun tumanlarida yashovchi qarluqlar XX asr boshlarida yarim o'troq hayot kechirganlar.

Qatag'onlar Ko'hitang tog'i yonbag'irlaridagi Xatak va Xo'janqon qishloqlarida, Boysun tizmasidagi Olachopon va Qayroq qishloqlarida, Sariosiyo tumanidagi Sangardak (tojiklar bilan aralash holda), Changloq, Bog'cha qishloqlarida, Surxondaryoning o'ng qirg'oqlarida yashashgan. Sovet davrigacha qatag'onlar sug'orma va lalmi dehqonchilik, bog'dorchilik bilan shug'ullanishgan.

Vohada qoraqalpog'lar asosan Sherobod tumanidagi Xomkon qishlog'ida yashaydi. 1949-1953 yillardagi ko'chirishdan keyin xomkonlik qoraqalpog'lar Jarqo'rg'on tumanining "Surxon", "Navoiy", Angor tumanining Tallimaron, Qumqo'rg'on tumanining "Besh qahramon", Qiziriq tumanining Oxunboboev, Bandixon tumanining "Paxtakor", Sherobod tumanining "Kallamazor", "Tallashqon", Boysun tumanining "Chilonzor", Muzrabod tumanining "Navbahor" va "Navoiy" nomli hududlarida yashab kelishmoqda [21]. Bugungi kunda ular xo'jaligining asosini dehqonchilik tashkil etadi.

Vohaning tog'li qismlarida yashovchi tojiklar ikki guruhga mansub bo'lib, birinchisiga azaldan yashab kelgan ko'histoniylar (tog'lik), ya'ni o'zlarini tub joy aholisi deb hisoblovchilar, ikkinchi guruhga esa turli joylardan kelgan viloyati yoki hisorilar kirgan. Birinchi guruhga mansub ko'histoniylar tojiklari uncha katta bo'lmagan tog'li Fyppyt Shotrut, Qarsh, Tamshush, Choch, Nilu, Zevar va boshqa qishloqlarda, ikkinchi guruhga mansub viloyati yoki hisorilar esa Xufar, Sina, Malau, Sariosiyo, Yurchi, Dehqalandar va boshqa qishloqlarda yashaganlar.

Sovet davrida Beshqo'ton, Istara va Muzrabod cho'llarining o'zlashtirilishi natijasida ushbu yangi yerlarga asosan vohaning tog' va tog'oldi hududlaridagi aholisi ko'chirilgan. Ichki migratsiyalar tufayli vohada yashovchi urug'larning ko'pchiligi o'zaro aralash holda yashay boshlashi aholining aralash xo'jalik faoliyatini yuritishiga olib kelgan. Shuningdek, jahon urushidan oldingi yillarda sovet hukumati Farg'ona vodiysidan yangi o'zlashtirilayotgan Surxon vohasi yerlariga aholini majburiy ko'chirtirgan bo'lib, ular paxta ekishni yaxshi o'zlashtirgan edilar. "Paxta ustasi", "paxta ustoz", yoki "tajribakorlar" sifatida ko'chirib keltirilganlarni mahalliy aholi "farg'onachilar" deb atagan [22]. Ular Termiz, Qumqo'rg'on, Denov va Sho'rchi tumanlariga joylashtirilgan. Natijada ushbu hududlarda xo'jalik almashinuv jarayonlari sodir bo'la boshlagan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki Surxon vohasining tabiiy-geografik iqlim sharoiti bu hududda istiqomat qilgan xalqlarning qadimdan turli xo'jalik faoliyatini bilan shug'ullanishiga imkoniyat yaratgan. Turli tarixiy davrlarda bu hududga ko'chib kelgan etnik guruhlar aholi xo'jalik madaniyatiga o'z ta'sirini o'tkazib borgan, yoki ularning o'zlari ushbu hududga xos xo'jalik yuritish an'analari o'zlashtirganlar. XX asrda Surxon vohasidagi asosiy etnomadaniy jarayonlar – o'zaro madaniy ta'sir, o'troq va chorvador aholining yaqinlashuvi va qisman qo'shilib ketish jarayoni kuchayib bordi. Vohadagi yarim o'troq o'zbeklar va turklar zich bo'lib yashaydigan joylarda o'troqlashuv hamda urug'chilik an'analari yo'qolib borishi jarayoni, shubhasiz, asta-sekin davom etgan. Qo'ng'iroq, qarluq, laqay va do'rmon kabi o'zbek urug'larida XX asrning 30-yillariga qadar ziroatchilik keng tarqalganligiga qaramasdan, ularda yarim o'troq hayot tarzi va urug'-qabilachilik tizimi unsurlari saqlanib qolgan.

ADABIYOTLAR

1. Курбанов А.Э. Этнические и локальные особенности традиционной культуры жителей Северосурханского оазиса (конец XIX – первая половина XX в.) Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Ташкент, 2009. – 30 с.
2. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С. 4.
3. Турсунов Н.Н. Жанубий Сурхон воҳаси аҳолисининг этник хусусиятлари (XIX аср охири – XX аср бошлари): Тарих фанлари номзоди ... дис. – Т., 2007. – Б. 60-61
4. Мухетдинов А. По Восточной Бухаре. «Народное хозяйство Средней Азии». Ташкент, 1924, № 2—3.
5. Хидоятлов И. К вопросу о формировании населения южных районов Узбекистана // Из истории культуры народов Узбекистана. Сборник статей. - Т., 1965. – С. 124–133.
6. Турсунов С. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи ва маданияти – Сурхондарё этнографияси. – Т., 2006. -Б. 85-86.
7. Қобулов Э. Сурхон воҳаси ҳўжалиги. Монография. – Тошкент: Академнашр, 2012. –390 бет.
8. Материалы по районированию Средней Азии» Кн.1 «Территория и население Бухары и Хорезма». 4-1. Бухара, Ташкент, 1926, С. 45.
9. Извлечение из путевых заметок классного топографа тит. сов. Петрова. 1884, С. 99
10. Список населенных мест УзССР и ТаджССР, вып. VII. Самарканд, 1925. стр. 16-17.
11. Маев А. Очерки Бухарского ханства (Гиссарский край. Куляб и побережье Аму-Дарьи). Ташкент. 1876. С. 87. Хидоятлов И. К вопросу о формировании населения южных районов Узбекистана // Из истории культуры народов Узбекистана. Сборник статей. - Т., 1965. – С. 124–133.
12. Мухаммед Юсуф Мушши. Муқимханская история, перевод А.А. Семенова. – Т., 1956. – С. 204–205.
13. Наджимов К. Антропологический состав населения Сурхан-Дарьинской области.-Т.: САГУ, 1958. - С. 84 ; Хидоятлов И. К вопросу о формировании населения южных районов Узбекистана // Из истории культуры народов Узбекистана. - Т., 1965. - С. 12.
14. Борозна Н.Г. Социалистическая преобразования в хозяйстве и быте узбеков-дурменов в долины Кафернигана и Бабатагских гор. Афтореферат дис. канд. ист. наук. – М.: МГУ, 1966. – С. 16.
15. Этнический атлас Узбекистана. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – С. 329.
16. Бердикулов Қ. Қўнғиротлар. – Т.: Ёзувчи, 1999. – Б. 10.
17. Алпомиш. Айтувчи Эгамберди Олломурод ўғли. Ёзиб олувчилар М.Муродов ва Т.Мирзаев. 1962 йил // ЎзР ФА Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв. №1530. 1-варақ.
18. Усмонов М.Ш. Жанубий Ўзбекистон ўзбек қўнғиротлари (тарихий-этнологик таҳлил): Тарих фан. фалсафа док.(PhD) ... дис. - Тошкент, 2018.
19. Шаниязов К.Ш. Узбеки-карлуки. Тошкент, 1964. – С. 45-67; Қарлуқ қабиласи ва унинг тили ҳақида айрим мулоҳазалар // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. Тошкент, 1962. 4-китоб. Б. 481-490.
20. Шониёзов К. Қарлуқ давлати ва қарлуқлар. –Тошкент, 1999. – Б. 152.
21. Кичилов Ҳ. Хомконлик қорақалпоқларнинг кўчиши // Ўзбекистонда моддий маданият ва этномаданий жараёнлар. Республика илмий-амалий анжумани. – Термиз, 2010. – Б. 39–43.
22. Ботинова Б.Н. Ўзбекистонда ўтказилган советларнинг аҳолини кўчириш сиёсати (1926-1941 йй.) тарих фанлари номзоди дисс афтореферати... - Тошкент, 2010. –Б. 15-16.